

DUNYOGA HAVF SOLAYOTGAN EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Aliyeva Navro'za Valijon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6964016>

Annotatsiya. Kundan-kunga dunyoda ekologik muammolar tobora avj olib bormoqda. Bunga nafaqat insoniyat balki tabiiy ofatlar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Eng katta xavflardan biri Ozon qatlamining misli ko'rilmagan darajada kengayib borishidir. Ushbu maqolada shunday ulkan ekologik muammolar, ularning natijasida dunyo iqlimi o'ta isib ketishi sabablari yoritilgan. Muallif bu muammolar yuzasidan xulosa va yechimlar keltirgan.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, Ozon qatlami, Arktika muzlari, Tinch okeani, neft, plastik chiqindilar, xlor, ftor, brom, Orol dengizi, jahon hamjamiyati.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, УГРОЖАЮЩИЕ МИРУ, И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация. День ото дня в мире обостряются экологические проблемы. На него влияют не только люди, но и природные катаклизмы. Одной из самых больших угроз является беспрецедентное расширение озонового слоя. В данной статье описываются такие огромные экологические проблемы, причины глобального потепления в результате их возникновения. Автор дает выводы и пути решения этих проблем.

Ключевые слова: экологические проблемы, озоновый слой, арктические льды, Тихий океан, нефть, пластиковые отходы, хлор, фтор, бром, Аральское море, мировое сообщество.

ENVIRONMENTAL PROBLEMS THREATENING THE WORLD AND THEIR SOLUTIONS

Abstract. Day by day, environmental problems are escalating in the world. It is influenced not only by people, but also by natural disasters. One of the biggest threats is the unprecedented expansion of the ozone layer. This article describes such huge environmental problems, the causes of global warming as a result of their occurrence. The author gives conclusions and ways to solve these problems.

Keywords: environmental problems, ozone layer, Arctic ice, Pacific Ocean, oil, plastic waste, chlorine, fluorine, bromine, Aral Sea, world community.

KIRISH

Ekologik muammolar dunyoga xavf solayotgan muammolardan biridir. Atrof-muhit muammolari inson faoliyatining biofizik muhitga ta'siri bo'lib, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Katta ta'sir tug'diradigan asosiy ekologik muammolardan ba'zilari havoning ifloslanishi, suvning ifloslanishi, tabiiy muhit ifloslanishi va boshqalardir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Atrof-muhitning buzilishi - havo, suv va tuproq kabi resurslarning ifloslanishi, yovvoyi tabiatning yo'q bo'lib ketishiga olib kelmoqda. Bunda o'rmonlarning qisqarishi va uning oqibatida yovvoyi hayvonlarning qirilib ketish xavfi kuchaymoqda. Dengiz va okean suvlarining misli ko'rilmagan axlatlarga to'lib ketishi, okeanga chiqaradigan maishiy va sanoat chiqindilari ham tobora ifloslanishga olib boryapti. Uning ifloslanishi daryolardan qo'shilayotgan notoza suvlar, sohillardan tashlanayotgan chiqindilar, kemalar va kemalar halokati sababli tushayotgan

neft mahsulotlari tufayli sodir bo'lmoqda. Yana bir okeanlar suvini ifloslantiruvchi moddalardan biri bu neftdir. Bu yog' tufayli baliqlar nobud bo'lmoqda, tirik qolganlari esa yoqimsiz ta'm va hidga ega bo'ladi. Dengiz yaqinida yashaydigan insonlar chiqindi bilan ifloslangan baliqlarni iste'mol qilishlari mumkin. Ularning go'shtida ko'p miqdorda qo'rg'oshin va simob mavjud bo'lib bu esa insonlarni o'lim holatiga olib borishi turgan gap. Dengiz oqimlari bo'ylab suzib yuruvchi va qirg'oqqa suzib chiqib qolayotgan neft ko'plab kurort maydonlarini dam olish va suzish uchun yaroqsiz holatga keltirmoqda. So'nggi 40 yil ichida Tinch okeanining plastik chiqindilar miqdori 100 barobarga ko'payganligi ta'kidlanmoqda.

Yana bir eng katta xavflardan biri bu ozon qatlamining yemirilishidir. Bilamizki, ozon qatlami yer yuzidagi hayotning muhim himoyachisidir. U Quyoshning ultrabinafsha nurlanishidan himoya qiladi. Ozon qatlamini olimlar "Biologik qatlam" deb ham atashadi, afsuski bu qatlamning yemirilishida inson omili sabab bo'lmoqda. Haddan tashqari kimyoviy moddalarning sanoat va qurilish sohasida keng qo'llanishi, kosmik parvozlar, reaktiv samolyotlar parvozi, avtomobillardan chiqayotgan gazlar yemirilish uchun asosiy sabablardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa xlor, ftor va freon gazi Bu qatlam holatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa kelajakda iqlimning tasavvurga sig'maydigan o'zgarishlarga, ya'ni inson immun tizimining zaiflashishiga, onkologik kasalliklar soni ortishiga, o'simliklarning kamayishi yoki ularni sekin o'sishiga olib kelishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

Ozon qatlami yemirilishiga nafaqat insoniyatning, balki tabiiy jarayonlarning ham salbiy ta'siri bor. Vulqonlar uyg'onishi, yer tagidagi gazlarning ajralib chiqishi bu qatlamdagi tuynuklarni kengaytiradi. Mana shunday narsalarni oldini olish maqsadida Jahon hamjamiyati Ozon qatlamini saqlab qolish uchun eng xavfli xlor, ftor, brom ro'yxati tuzilib, bu moddalarni ishlab chiqarish hajmini kamaytirish reja qilingan. Bundan tashqari transport vositalari, ko'p zararli gazlar chiqarayotgan avtomobillarni texnik ko'rikdan o'tkazish, va ulardan kam foydalanib ko'proq piyoda va velosipedlarda harakatlanish kerakligi nazarda tutilgan. Bu ham atrof-muhit ham inson sog'lig'i uchun foydali.

MUHOKAMA

Ekologik muammolardan yana biri Arktika muzlarining erishi. Global iqlim isishi oqibatida Arktikadagi muzliklar juda ham tez erib bitmoqda. Okeandagi suv sathi ko'payishi va dunyo bo'ylab sohilbo'yi shaharlarga xavf solayotgan narsa ham bu muzliklarning erishi tufayli deyishimiz mumkin. Agar dunyo davlatlari zaharli chiqindilar miqdorini kamaytirish masa muzlarning judayam ko'p qismi erib ketish xavfi bor. Va buning natijasida tabiat va iqlimning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Arktikada iliq havo mavsumi uzoq davom etadi va bu qolgan muzliklarning erishiga sabab bo'ladi. Cho'l zonalarining o'zlashtirib olinishi va undan foydalanish uchun juda ko'p orol dengiz suvlari sarflanmoqda. Bu esa dengizlarning qurib qolish ehtimolini oshirmoqda. Orol dengizlarini qurib qolishi natijasida iqlim yana ham isishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa qurib qolgan dengizdan so'ng qolib ketgan tuzlarning shamolda uchib dengiz bo'yida yashovchi aholining turli kasalliklarga chalinishiga olib kelyapti.

XULOSA

Atrof-muhitni asrash, unga zarar yetkazmaslik har bir insonning qo'lidan keladi. Ahir o'zimiz yashab turgan dunyoni, o'zimiz nafas olayotgan havoni ifloslantirsak o'zlarimiz uchun xavfli emasmi? Ey odam bolasi bir o'ylab ko'r sen hozir shunday qiladigan bo'lsang, sendan

keyingi avlod uchun hayot qay tarzda kechadi? Xulosa qil, tabiatni asra, sening atrof-muhit uchun qiladigan eng hayrli ishing shudir!!!

REFERENCES

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
2. H.Charles "Global ekologik siyosat:tushunchalar, tamoyillar va amaliyot.
3. Jeyms.R. Lee " Ekologik ziddiyat va hamkorlik ".
4. Science and Innovation journal, [04.08.2022 10:38]
5. Броварский В. Д., Турдалиев А. Т., Мирзахмедова Г. И. Воздействие температуры окружающей среды на пчел и растения //Научное обозрение. Биологические науки. – 2020. – №. 3. – С. 43-48.
6. Турдалиев, А. Т., Аскарлов, К. А., Жалилова, Ш. А., Гуломова, З. А., & Мусаев, И. И. (2019). Физико-химические, геохимические особенности и их влияние на почвенно-экологическое состояние гидроморфных почв. Научное обозрение. Биологические науки, (4), 44-49.
7. Аскарлов К. А., Турдалиев А. Т., Сотиболдиева М. М. Геохимия микроэлементов в почвах Центральной Ферганы //Современные научные исследования и разработки. – 2018. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-45.
8. Turdalievich T. A., Gulyam Y. Morphological features of pedolytical soils in Central Ferghana //European science review. – 2016. – №. 5-6. – С. 14-15.
9. Турдалиев А., Юлдашев Г. Геохимия педолитных почв. Монография //Т." Фан. – 2015. – С. 41-48.
10. Valijanovich M. O. et al. Biogeochemistry Properties of Calcisols and Capparis Spinosa L //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3227-3235.
11. Турдалиев А. Т., Аскарлов К. А. Энергетические особенности микроэлементов в засоленных почвах Центральной Ферганы //Актуальные проблемы современной науки. – 2019. – №. 6. – С. 83-87.
12. Turdaliev, A., Yuldashev, G., Askarov, K., & Abakumov, E. (2021). Chemical and biogeochemical features of desert soils of the central Fergana. Agriculture, 67(1), 16-28.
13. Турдалиев А. Т., Аскарлов К. А., Мирзаев Ф. А. У. Морфологические особенности орошаемых почв Центральной Ферганы //Почвы и окружающая среда. – 2019. – Т. 2. – №. 3. – С. 6.
14. Броварский, В. Д., Турдалиев, А. Т., & Мирзахмедова, Г. И. (2020). Воздействие температуры окружающей среды на пчел и растения. Научное обозрение. Биологические науки, (3), 43-48.